



THE MAIN TOOLS AND FACTORS FOR LIFTING LOW-INCOME FAMILIES OUT OF POVERTY IN UZBEKISTAN

Alisher Kuramboev

Doctoral student

Research Institute "Family and gender"

Uzbekistan, Tashkent

ABOUT ARTICLE

Key words: poverty, social policy, economic reform, education, small business, personal responsibility.

Received: 17.10.24

Accepted: 19.10.24

Published: 21.10.24

Abstract: This article analyzes the main tools and factors used to lift low-income families out of poverty in Uzbekistan. The fact that poverty is a serious threat to the country and its social, economic and psychological consequences are considered. The article highlights the role of basic tools such as state social policy, education and training programs, small and medium business development. The importance of personal responsibility and hard work in reducing poverty is also discussed extensively.

O'ZBEKISTONDA KAM TA'MINLANGAN OILALARNI KAMBAG'ALLIKDAN CHIQRISHNING ASOSIY VOSITALARI VA OMILLARI

Alisher Quramboev

doktorant

"Oila va gender" ilmiy-tadqiqot instituti

O'zbekiston, Toshkent

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: kambag'allik, ijtimoiy siyosat, iqtisodiy islohotlar, ta'lim, kichik biznes, shaxsiy mas'uliyat.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda kam ta'minlangan oilalarni kambag'allikdan chiqarish yo'lida qo'llaniladigan asosiy vositalar va omillar tahlil qilinadi. Kambag'allikning mamlakat uchun jiddiy xavf ekanligi va uning ijtimoiy, iqtisodiy hamda ruhiy oqibatlarini ko'rib chiqiladi. Maqolada davlatning ijtimoiy siyosati, ta'lim va malaka oshirish dasturlari, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish kabi asosiy vositalarning roli yoritiladi. Shuningdek, shaxsiy mas'uliyat va

mehnatsevarlikning kambag'allikni kamaytirishdagi ahamiyati ham keng qamrovli tarzda muhokama etiladi.

ОСНОВНЫЕ ИНСТРУМЕНТЫ И ФАКТОРЫ ВЫВЕДЕНИЯ МАЛООБЕСПЕЧЕННЫХ СЕМЕЙ ИЗ БЕДНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Алишер Курамбаев

Докторант

научно-исследовательского института "Семья и гендер"

Узбекистан, Ташкент

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: бедность, социальная политика, экономическая реформа, образование, малый бизнес, личная ответственность.

Аннотация: В данной статье анализируются основные инструменты и факторы, используемые для вывода малообеспеченных семей из бедности в Узбекистане. Рассмотрено то, что бедность представляет собой серьезную угрозу для страны и ее социальные, экономические и психологические последствия. В статье освещена роль таких базовых инструментов, как государственная социальная политика, образовательные и обучающие программы, развитие малого и среднего бизнеса. Также широко обсуждается важность личной ответственности и упорного труда в сокращении бедности.

KIRISH

Har bir insonning kundalik hayotida zarur bo'lgan minimal ta'minotning yetishmasligi zamonaviy davlatlar uchun katta xavf tug'diradi, bu xavf boshqa muammolardan qolishmaydi. Buning natijasida, shaxs, jamiyat va davlatning barqaror rivojlanishi jiddiy tahdid ostida qoladi. Shu bilan birga, kambag'allikni yengish va kerakli sharoitlarni yaratish mamlakatning yangi rivojlanish bosqichiga o'tishiga zamin yaratadi. Ammo, kambag'allikka qarshi kurashish murakkab va uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, bu jarayon keng qamrovli va tizimli yondashuvni talab qiladi. Kambag'allik bolalar uchun jiddiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Ular ota-onalarining doimiy qiyinchiliklarini ko'rib, o'zlarini jamiyatdan chetga chiqarilgan yoki begonalashgan deb his qilishlari mumkin. Bu holat bolaning ichki dunyosiga salbiy ta'sir ko'rsatib, uni boshqalar bilan muloqotda qiynalayotganini his qilishiga olib keladi. Bola o'zini yashirishga harakat qilishi yoki muvaffaqiyatli tengdoshlariga nisbatan ochiqdan-ochiq g'azab va nafratni bildirishi mumkin. Agar bu vaziyat o'zgarmasa, bola o'zining jamiyatga bo'lgan ishonchini yo'qotib, yaxshi niyatlarni yomon maqsadlarga almashtirishi ehtimoli yuqori bo'ladi.

ASOSIY QISM

Bu jarayonda samarali natijaga erishish uchun bir qancha vositalar va omillar mavjud bo'lib, ularning to'g'ri kombinatsiyasi kambag'allikni kamaytirish yo'lida muhim ahamiyat kasb etadi.

Birinchi navbatda, iqtisodiy islohotlar va davlatning ijtimoiy siyosati katta rol o'ynaydi. Davlat tomonidan ajratilayotgan moddiy yordam, ijtimoiy nafaqalar va subsidiya dasturlari kambag'al oilalarning minimal yashash sharoitlarini ta'minlashga xizmat qiladi. Bunday yordamlar kambag'al oilalarning o'zlarini mustahkamlashlari va iqtisodiy jihatdan mustaqil bo'lishlari uchun zamin yaratadi.

Ikkinchidan, kambag'allikni kamaytirishga qaratilgan ta'lim va malaka oshirish dasturlarini qayd etish mumkin. Bu dasturlar orqali kambag'al oilalar a'zolariga yangi kasb-hunar o'rgatish, ularni zamonaviy mehnat bozoriga moslashishiga yordam berish lozim. Buning natijasida ular ish bilan ta'minlanish imkoniyatlariga ega bo'lishadi va o'z iqtisodiy holatini yaxshilash imkonini qo'lga kiritishadi.

Shuningdek, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish, mikromoliyalashtirish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash ham muhim omillar sirasiga kiradi. Bu sohada kichik kreditlar va imtiyozli qarzlarni ajratish orqali kambag'al oilalarga o'z tadbirkorlik faoliyatini boshlashga ko'maklashish mumkin. Bu nafaqat ularning iqtisodiy holatini yaxshilashga, balki yangi ish o'rinlarini yaratishga ham olib keladi. Hududiy rivojlanish va infratuzilmani yaxshilash dasturlarini ta'kidlash lozim. Qishloq joylarida yo'llar, elektr energiyasi, suv va gaz ta'minotini yaxshilash kambag'al oilalarning yashash sharoitlarini tubdan o'zgartirishi mumkin. Shu bilan birga, hududlarda yangi ishlab chiqarish korxonalarini va sanoat tarmoqlarini rivojlantirish orqali aholi uchun yangi ish o'rinlari yaratiladi va kambag'allik darajasi kamayadi. Bundan tashqari, kambag'allikni kamaytirish uchun eng birlamchi choralaridan biri bu **mehnat** hisoblanadi. Mehnat محنت – sinov; mashaqqat.

1. Biror maqsad uchun qaratilgan aqliy yoki jismoniy faoliyat; ish.

2. Biror maqsad uchun sarflanadigan kuch, g'ayrat, harakat [1].

Insonning hayvonan farq qiladigan eng muhim xususiyati - o'zining yashashi, turmushi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy boyliklarni ishlab chiqarish malakasiga ega bo'lishi. Fan nuqtai nazaridan insonga nisbatan "inson eng aqlli mavjudot", "inson o'zini o'zi anglovchi mavjudot", "inson-ma'naviy mavjudot" degan fikrlar ishlatiladi. Odamning insonga aylanishi va jamiyatga birlashishi antroposotsiogenez jarayonining natijasidir. Antropogenez jarayonida mehnat asosiy rol o'ynaydi. Mehnat tufayli inson o'zi yashayotgan tabiiy muhitni o'zgartiradi, moddiy va ma'naviy boyliklar yaratadi, o'zini ham o'zgartiradi. Mehnat antropogenez (ya'ni odamning shakllanishi) va sotsiogenez (jamiyatda yashash, insonga aylanish) jarayonining markaziy inson omilidir [2]. Zeroki, rizq insonga mehnatlari evaziga beriladi. Mehnat qilgan

kishining harakati hech qachon zoye ketmaydi va bir kun maqsadiga erishadi. Ayrimlar rizq osmondan tillo, kumush tushushini kutib yo tilanchilikni kasb qilib qo'llarini sovuq suvga urishmaydi. Mehnat qilmasdan, sabablarni bajarmasdan inson o'z maqsadiga hech qachon erisha olmaydi. Kim harakat qilsa yeydi yoki aksincha qodir bo'la turib, dangasaligi tutib harakat qilmasa mahrum bo'ladi. Dangasalik esa xayrsiz narsadir. Dangasaga bulut soyasi ham yuk. Dangasaning kosasi oqarmaydi. Turmushning betashvish o'tishi insonning qo'lida. Buning manbai mehnatdir. Mehnat dunyodagi shodlik, osudalik va baxtning kalitidir. Kasbning xilini emas, balki tilini topgan boyishi mumkin. Rivoyat qilishlaricha, bir donishmanddan so'radilar:

- Hayot mashaqqatlarini qanday yengish mumkin?

Donishmand javob berdi:

- Tog'dagi tosh yo'nuvchi ustanig mehnatini ko'rganmisizlar? U bir parcha toshni tog'dan ajratib olish uchun yuz marta bolg'a uradi. Tosh metinday turaveradi. Yuz birinchi urishda esa, tosh bo'linadi. Go'yo so'nggi bolg'a zarbi ishni hal qilgandek. Aslida yuz marta bolg'a urilmaganida yuz birinchisida tosh hech vaqt bo'linmas edi"[3]. Mehnatsevarlik kishi kamolotining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. U odamni muhtojlikdan, hayotdan zerikishdan, axloqiy buzilishdan asraydi, umrini mazmun bilan boyitadi. Mehnatsevar kishi obro'-e'tibor orttiradi, turmushi barakali bo'ladi, undan esa yaxshi nom, savob amal qoladi[4]. "Bilgilki, o'zingni va ahli ayolingni xalqqa muhtoj qilmaslik va ularning kerakli narsalarini haloldan kasb etmoq fisabililloh jihod qilganga o'xshashdir va ko'pincha ibodatdan afzaldir"[5]. "Bilmasmikinklarki, to dehqonchilik va tijorat qilmaganlaricha mol va dunyo topmaslar. Va riyozat bilan sa'y-harakatda bo'lmaguncha ilm o'rganmaslar. Hargiz dunyo talabida kamchilik qilmaslar va "Xudoyi taolo karim va rahimdir, betijorat va beziroat rizq-ro'z berguvchidir", demaslar. Har bandaning rizqi o'z mehntiga, sa'y-harakatiga bog'liq"[6]. Ikkinchidan, **yaqin, boy qarindoshlarning faqir qarindoshlariga saxovati, qo'shnilarning bir-biriga yordami va boshqa insonlarning ixtiyoriy sadaqa va ehsonlari**. Lug'atda saxovat[7] [A. – سخاوت qo'li ochiqlik, oliyhimmatlik, saxovatlilik] 1. Baland himmatlilik, saxiylik. 2. Ko'chma tabiiy boylik; mo'l hosil; to'kinlik, mo'llik. Uning ziddi baxillik hisoblanib, "baxillik" lug'atda karamlilik va saxiylikning ziddidir. Hadislarga ko'ra baxillik hojat tushganda o'zidan ustun ko'rishni tark qilish, o'zgada bor narsaga toqat qilolmaslikdir. Baxillikning asosiy sababi molga bo'lgan, kibrga, mansabga bo'lgan ortiqcha muhabbatdir. o'zi yomonlanmaydi. Balki, odamning mol-dunyoga bo'lgan munosabatidagi ma'no yomonlashadi. Baxillik odamning o'z moliga jonu dilidan yopishib olishidir. Baxil odam o'zini yeyishi va kiyinishi uchun ham pul sarf etishni istamaydi. Hind hakimlarining kinoya qilib yozishlaricha, o'z mol-mulklarini yaxshilik yo'lida sarflamaydigan baxil kishilar "sahiy" kishilardir. Chunki o'zlari yemay, hammasini o'zgalar uchun

qoldiradilar. Baxillik insondagi saxiylikka tubdan qarama-qarshi bo'lgan qusurdir, u sahovatni yo'qqa chiqaradi[8].

Demak, yuqoridagi chora-tadbirlarni ikki katta guruhga bo'lish mumkin: birinchidan, **davlatning mas'uliyati** bo'lib, ijtimoiy himoya kafolatini berishi kerak. Prezidentimiz bejizga quyidagicha ta'kidlamadilar: “Eng muhimi, biz ko'p yillar davomida amal kilib kelingan “davlat — jamiyat — inson” tamoyilini o'zgartirdik. Mamlakatimizda avvalo inson, keyin esa, jamiyat va davlat manfaati barcha xarakterimizning negiziga qo'yildi. Hayotimizda “Davlat — insonlar uchun” degan xalqchil g'oya izchillik bilan qaror topib bormoqda.” Inson taraqqiyoti uchun kerakli huquq va imkoniyatlarni yaratib berishi kerak”[9]. “Oxirgi uch yilda “Inson manfaatlari hamma narsadan ustun” degan tamoyil asosida, xalqimiz hayotini tubdan yaxshilash bo'yicha olib borayotgan keng ko'lamli ijtimoiy islohotlarni davom ettiramiz. Buning uchun birinchi navbatda aholi farovonligini oshirish va uning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish - biz uchun bosh vazifalardan biri bo'lib qoladi. Hududlarda, ayniqsa, qishloqlarda aholining aksariyat qismi yetarli daromad manbayiga ega emasligidan xabaringiz bor. Har qanday mamlakatda bo'lgani kabi bizda ham kam ta'minlangan aholi qatlamlari mavjud. Turli hisob-kitoblarga ko'ra, ular taxminan 12-15 foizni tashkil etadi. Bu o'rinda gap kichkina raqamlar emas, balki aholimizning 4-5 millionlik vakillari haqida bormoqda. Ba'zi odamlar ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam pulini to'lash yoki ularning miqdorini oshirish orqali ushbu muammoni hal etish mumkin, deb o'ylaydi. Bu - bir tomonlama yondashuv bo'lib, muammoni to'la yechish imkonini bermaydi. Kambag'allikni kamaytirish - bu aholida tadbirkorlik ruhini uyg'otish, insonning ichki kuch-quvvati va salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, yangi ish o'rinlari yaratish bo'yicha kompleks iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, demakdir”[10]. Ikkinchidan, **shaxsiy mas'uliyat** bo'lib, har kim imkoniyati bo'lsa avvalo o'zi mehnat qilib, intilib, sa'y-harakat qilishlari lozim.

Ma'suliyat ijtimoiy axamiyatli burch va vazifalarning bajarilishi, muayyan axloqiy tamoyillarga rioya kilish bo'yicha shaxsning jamiyat a'zolari oldidagi javobgarligi. Ma'suliyat jamiyat, ijtimoiy guruh tomonidan shaxsqa qo'yiladigan talablar asosida shakllanadi. Bu talablarning shaxs tomonidan uzlashtirilishi uning xatti-xarakatlari, faoliyatida namoyon bo'ladi. Shaxsning shakllanishida ma'suliyat xissini tarbiyalash muhim o'rin tutadi.

Ma'suliyat shaxsning jamiyat manfaatlarini qay darajada chuqur anglay olishini nazarda tutadi[11]. Sartrning fikricha, inson o'z hayoti va tanlovlari uchun, shu jumladan kambag'allik kabi sharoitlarga qaramasdan mas'uldir. U kambag'allik kabi tashqi omillarni harakatsizlik yoki o'z maqsadlariga erisha olmaslik uchun bahona qilib ko'rsatish g'oyasini rad etadi. Inson o'z tanlovlari uchun javobgardir, qashshoqlik esa bu tanlovlarga to'sqinlik qilmaydi. Sartre hatto kambag'allikda ham inson o'z hayotiga ma'no berish va o'z yo'lini tanlash erkinligiga ega ekanligini ta'kidlaydi [12]. Ya'ni, Sartrning fikricha, kambag'allik ham inson hayotining bir qismi,

uning mavjudlik sharti, lekin bu uning erkinligini cheklash yoki uning mas'uliyatini yo'q qilish uchun bahona bo'la olmaydi. Iqtisodiy qiyinchiliklar ijtimoiy chetlashtirishga va ta'lim va imkoniyatlarga ega bo'lmaslikka olib kelishi mumkin, bu esa o'z navbatida siyosiy huquqlardan mahrum bo'lishni davom ettiradi. Bu insonlar yoki jamiyatlar kambag'allikda qolib, jamiyatda to'liq ishtirok eta olmaydi yoki o'z hayotiga ta'sir etuvchi qarorlarni ta'sirlantira olmaydigan aylanani yaratadi. Ruhiiy kambag'allik yoki ma'no va maqsadning yo'qligi iqtisodiy va siyosiy chetlashtirishning ham sababi, ham oqibati bo'lishi mumkin. Odamlar asosiy ehtiyojlar va imkoniyatlardan mahrum bo'lganda, ular hayotlarida ma'no topishda qiynalishlari mumkin, bu esa umidsizlik va noumidlikka olib keladi. Aksincha, ruhiy qanoatlanirishning yo'qligi insonlarni o'zlarining iqtisodiy yoki siyosiy sharoitlarini yaxshilash uchun chora ko'rishdan to'sishi mumkin. Kambag'allikni bartaraf etish uchun uning turli jihatlarini hisobga olgan holda yondashuv zarurligini ta'kidlaydi. Faqat iqtisodiy omillarga e'tibor qaratish yetarli emas, balki kambag'allikning ijtimoiy, siyosiy va ruhiy jihatlarini ham hisobga olish kerak, toki adolatli va teng huquqli jamiyat yaratilsin[13].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kambag'allikka qarshi kurash mamlakatimizda yangi yo'nalish sifatida rivojlanmoqda. Belgilangan maqsadlarga erishishda ushbu vazifani amalga oshirish uchun real sharoitlardan kelib chiqib vositalar va usullarni ishlab chiqish eng samarali yondashuv hisoblanadi. Har bir inson farovon va baxtli hayotga haqli. Insonlarning yaxshi yashashga bo'lgan intilishlarini ayblab bo'lmaydi. Shu bilan birga, kambag'allikda yashayotgan har bir fuqaro o'z hayotini o'zgartirishga bo'lgan qat'iy istak, yangiliklardan qo'rqmaslik va doimo oldinga intilish zaruratini his qilishi lozim. Chunki harakatlar va intilishlar o'zaro qo'llab-quvvatlanishi kerak. Xulosa qilib aytganda, yaxshi hayot o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi; bunga erishish uchun mehnat qilish talab etiladi. Farovon hayotni hech kim bizga tayyor holda bermaydi, biz uni o'z kuch va mehnatimiz bilan yaratamiz.

Adabiyotlar:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi til va adabiyot instituti. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent.2013.B.587.
2. Tulenov J, Tulenova K, Tulenova G. Falsafa. Darslik.. - Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo", 2022, 344-345-betlar.
3. Yorqin Abdullayev. Osuda yashashning 99 siri.Toshkent."Ta'lim nashriyoti".2013.B.127.
4. Ochilova B. Axloq falsafasi. O'quv qo'llanma Toshkent: "Ijod-print", 2019. B.57.
5. Abu Homid G'azzoliy Kimiyoi saodat. Imom Buxoriy xalqaro markazi. "G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Samarqand.2018 B.110.

6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi til va adabiyot instituti. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”. Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent.2013.B.464.

7. Ochilova B. Axloq falsafasi. 0‘quv qo‘llanma Toshkent: “Ijod-print”, 2019. B.125-126

8. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz. “O‘zbekiston” nashriyoti, Toshkent.2023.161-162-betlar.

9. Shavkat Mirziyoyev. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. . “O‘zbekiston” nashriyoti, Toshkent.2020.B.27.

10. Karimov I, Valieva C, Tulenova K. Ijtimoiy falsafa.Uslubiy qo‘llanma.Toshkent. “STAR-POLIGRAF”, 2008.. B.87

11. "Existentialism is a Humanism" by Jean-Paul Sartre. The lecture was later included in the book "Existentialism from Dostoyevsky to Sartre" translated by Walter Kaufman.